

O'QUVCHILARDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR**Mamadoliyeva Nilufar Rahim qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Masofaviy va kechki ta'lim fakulteti IV-bosqich 404-guruh talabasi.

E-mail: nilufamamadoliyeva@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.18279561>**

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish masalasi zamonaviy o'zbek tilshunosligi va metodika fanida olib borilayotgan tadqiqotlar asosida yoritiladi. Tadqiqotda tinglab tushunish nutqiy faoliyatning yetakchi turi sifatida talqin qilinib, uning o'qish, gapirish va yozish ko'nikmalari bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslanadi. O'zbek metodist olimlarining fikrlariga tayangan holda, tinglab tushunish ko'nikmasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik omillar (darsni tashkil etish, mashqlar tizimi, o'qituvchi faoliyati), psixologik omillar (diqqat, xotira, motivatsiya) hamda lingvodidaktik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada hozirgi ta'lim jarayonida audio va multimediya vositalaridan foydalanish, autentik materiallar asosida mashg'ulotlar tashkil etishning o'quvchilarning tinglab tushunish malakasini oshirishdagi o'rni ochib beriladi.

Tadqiqot natijalari tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda tizimli yondashuv, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda real nutq muhitiga yaqin materiallardan foydalanish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish ko'nikmasi, auditive kompetensiya, nutqiy faoliyat, o'zbek tilini o'qitish metodikasi, pedagogik omillar, psixologik omillar, autentik materiallar, audio va multimediya vositalari, kommunikativ yondashuv, til kompetensiyasi

Аннотация. В данной научной статье рассматривается вопрос формирования и развития навыков понимания на слух у учащихся на основе исследований, проведенных в современной узбекской лингвистике и методологии. В исследовании понимание на слух рассматривается как ведущий вид речевой деятельности, и научно обосновывается его неразрывная связь с навыками чтения, говорения и письма. На основе идей узбекских методистов анализируются педагогические факторы (организация уроков, система упражнений, деятельность учителя), психологические факторы (внимание, память, мотивация) и лингводидактические факторы, влияющие на развитие навыков понимания на слух. В статье также раскрывается роль использования аудио- и мультимедийных средств в современном образовательном процессе, организации занятий на основе аутентичных материалов в совершенствовании навыков понимания на слух у учащихся.

Результаты исследования показывают, что важен систематический подход к развитию навыков понимания на слух, учитывающий возраст и индивидуальные особенности учащихся, а также использование материалов, приближенных к реальной речевой среде.

Ключевые слова: навыки понимания на слух, слуховая компетенция, речевая деятельность, методика преподавания узбекского языка, педагогические факторы, психологические факторы, аутентичные материалы, аудио- и мультимедийные средства, коммуникативный подход, языковая компетенция

Abstract. This scientific article discusses the issue of forming and developing listening comprehension skills in students based on research conducted in modern Uzbek linguistics and methodology.

The study interprets listening comprehension as a leading type of speech activity, and its inextricable connection with reading, speaking and writing skills is scientifically substantiated.

Based on the ideas of Uzbek methodologists, pedagogical factors (lesson organization, exercise system, teacher activity), psychological factors (attention, memory, motivation) and linguodidactic factors that affect the development of listening comprehension skills are analyzed.

The article also reveals the role of the use of audio and multimedia tools in the current educational process, the organization of classes based on authentic materials in improving students' listening comprehension skills. The results of the study show that a systematic approach to developing listening comprehension skills, taking into account the age and individual characteristics of students, and the use of materials close to a real speech environment are important.

Keywords: *listening comprehension skills, auditory competence, speech activity, Uzbek language teaching methodology, pedagogical factors, psychological factors, authentic materials, audio and multimedia tools, communicative approach, language competence.*

KIRISH

Hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi pedagogika va til o'qitish metodikasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutqiy faoliyat turlari ichida tinglab tushunish ko'nikmasi alohida o'rin tutib, u shaxsning til orqali axborotni qabul qilishi, anglash va muloqot jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. O'zbek metodist olimlarining ta'kidlashicha, tinglab tushunish ko'nikmasi yetarli darajada shakllanmagan taqdirda o'quvchining boshqa nutqiy faoliyat turlarini samarali egallashi qiyinlashadi (Abdullayeva, M 2020:67).

Tinglab tushunish ko'nikmasi nafaqat chet tillarni, balki ona tilini o'rganish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchining og'zaki tushuntirishlari, audio va video materiallar, sinfdoshlar nutqi orqali axborot oladi. Agar ushbu axborot to'g'ri idrok etilmasa, bilimlarni puxta o'zlashtirish jarayoni izdan chiqadi.

Shu nuqtayi nazardan, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish masalasi o'zbek tilini o'qitish metodikasida dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida tinglab tushunish ko'nikmasining shakllanishi bir qator omillar bilan izohlanadi.

Jumladan, o'qitish metodlarining to'g'ri tanlanishi, mashqlar tizimining izchil tashkil etilishi, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, xususan, diqqat va xotira darajasi hamda o'quv motivatsiyasi ushbu ko'nikmaning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Metodist olimlar fikriga ko'ra, tinglab tushunish jarayoni faqat eshitish bilan cheklanmay, balki eshitilgan axborotni anglash, tahlil qilish va qayta ifodalash bosqichlarini ham o'z ichiga oladi (Hamroyev, G' 2020:75).

Shuningdek, hozirgi ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Audio va multimediyaviy vositalari, real nutqqa yaqin autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning tabiiy nutqni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbek tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida bunday vositalardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning tinglab tushunishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning nutqiy faolligini kuchaytiradi (Mahmudov, N 2019: 56).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogik va tilshunoslik adabiyotlarida tinglab tushunish ko'nikmasi ko'p yillardan buyon tadqiq qilinmoqda. L.Vandergrift, J. C.Richards, L. Bachman, V. N. Lomonosov, L.S.Vygotskiy, H. D.Brown, Psixolog A.R.Luriyaning asarlari bu sohadagi nazariy asoslarni yaratgan. A. R. Luriyaning ta'kidlashicha, nutqni anglash jarayoni miyaning murakkab analitik faoliyati bo'lib, bunda diqqat, xotira va tafakkur birgalikda ishlaydi. Diqqatni jamlay oladigan o'quvchilarda tinglab tushinish ko'rsatkichi 2 baravar yuqori bo'ladi(Mo'minov,Sh 2018:45).

O'zbek olimlaridan N.Mahmudov, A.Nurmonov, I.G'anixo'jayev, G'.Hamroyev, N.Usmonova, D.Qodirov va h.k ham ilmiy ishlar olib borgan. N.Mahmudovning fikricha, o'quvchi tilni faqat grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida egallashi kerak.Bunda tinglab tushinish nutqiy faoliyatning asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Tinglash – nutqiy rivojlanishning boshlang'ich nutqasi, o'quvchi avval eshitib anglaydi, so'ng gapirishni o'rganadi, o'qituvchi nutqi asosiy namuna bo'lishi zarur. Nutqiy muhit va o'qituvchi nutqi tinglab tushinishni rivojlantiruvchi yetakchi omil deya takidlaydi (Mahmudov, N 2019:75).

Mazkur tadqiqot o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi pedagogik, psixologik va lingvodidaktik omillarni aniqlash hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi o'zbek tilini o'qitish metodikasi, pedagogika va psixolingvistika fanlarining ilg'or yondashuvlariga asoslandi

Tadqiqotda nazariy va amaliy metodlar uyg'unligi ta'minlandi. Nazariy bosqichda o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasi, uning nutqiy faoliyat bilan bog'liqligi va rivojlanish omillari mavzuga oid o'zbek olimlarining ilmiy manbalari orqali tahlil qilindi.Amaliy bosqichda esa dars jarayonida tinglab tushunishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etilib, o'quvchilarning ishtiroki va faoliyati kuzatildi.

Tadqiqotda qo'llangan asosiy usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kuzatish metodi – dars jarayonida tinglab tushunish mashg'ulotlari va o'quvchilarning nutqiy faolligi bevosita tahlil qilindi.
2. Pedagogik tajriba – tinglab tushunishga yo'naltirilgan interfaol mashqlar, audio va multimediya materiallari asosida mashg'ulotlar sinovdan o'tkazildi.
3. Taqqoslash va umumlashtirish – dars oldi va darsdan keyingi natijalar solishtirilib, olingan ma'lumotlar tizimlashtirildi.
4. Diagnostik tahlil – o'quvchilarning tinglab tushunish darajasi testlar, qisqa qayta hikoyalash va savol-javoblar orqali baholandi.

Tadqiqot jarayonida audio va multimediya vositalari, autentik materiallar va interfaol mashg'ulotlardan foydalangan holda o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasi samaradorligi aniqlandi. Shu bilan birga, psixologik omillar – diqqatni jamlay olish, xotira darajasi va motivatsiya – ham tadqiqotning markaziy elementlari sifatida o'rganildi.

Tadqiqot natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun qiyosiy-tahliliy yondashuv va kontekstual tahlil metodi ham qo'llanildi, bu orqali mashg'ulotlarning samaradorligi va o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan xulosalarga tayangan holda, o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasi ko'p omilli va murakkab tizim bo'lib, u pedagogik, psixologik va lingvodidaktik omillarning uyg'unligiga bevosita bog'liqdir (Usmonova,N2021:60).

Kuzatishlar va tajriba mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning tinglab tushunish darajasi darsni tashkil etish shakli, qo'llanilgan metodlar va ta'lim vositalarining xilma-xilligiga qarab farqlanishi aniqlandi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, an'anaviy darslarda tinglab tushunish ko'nikmasi ko'pincha ikkilamchi o'rinda qolib, asosan o'qish va yozishga urg'u beriladi. Natijada o'quvchilarning real nutqni idrok etish qobiliyati yetarli darajada shakllanmaydi. Shu bilan birga, audio va multimediya materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, eshitilgan axborotni anglash va qayta ifodalash ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan asosiy muammo shundan iboratki, o'quvchilar tezkor va tabiiy nutqni idrok etishda qiyinchilikka duch keladi. Bu holat, asosan, darsda sun'iy va soddalashtirilgan audio materiallardan haddan tashqari ko'p foydalanilishi bilan bog'liq. Natijada o'quvchilar real nutq tezligiga moslasha olmaydi va eshitilgan ma'lumotni to'liq anglay olmaydi. Olingan tadqiqotlar natijasida 1- jadval shakllantirildi.

1-jadval. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

Omillar turi	Omil mazmuni	Ta'sir darajasi
Psixologik omillar	Diqqat, xotira, motivatsiya	Yuqori
Pedagogik omillar	O'qitish metodlari, mashqlar tizimi	Yuqori
Texnologik omillar	Audio va multimediya vositalari	O'rta-yuqori
Lingvistik omillar	Lug'at boyligi, talaffuz	O'rta
Ijtimoiy omillar	Til muhiti, muloqot tajribasi	O'rta

(Qodirov,2018; Usmonova, 2021; To'rayeva,2019)

Mazkur muammoning ilmiy va amaliy yechimi sifatida dars jarayoniga bosqichma-bosqich autentik audio materiallarni joriy etish tavsiya etiladi. Xususan, dastlab soddalashtirilgan, keyin tabiiy nutq tezligidagi audio matnlar bilan ishlash, eshitilgan material asosida savol-javoblar, qisqa qayta hikoyalash va muhokama mashqlarini tashkil etish samarali yechim sifatida belgilandi. Shu yondashuv o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasini real kommunikativ vaziyatlarga mos holda rivojlantirishga xizmat qiladi(Qodirov,D 2018:50).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda tizimli yondashuv, interfaol mashqlar va audio-multimediya vositalaridan samarali foydalanish zarur. Shuningdek, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashqlarni tanlash, motivatsiyani oshirish va diqqatni jamlashga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish pedagogik, psixologik va lingvodidaktik omillarning uyg'un ishlashi bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va autentik materiallardan samarali foydalanish bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi, tinglab tushunish ko'nikmasi pedagogik, psixologik va lingvodidaktik omillarning uyg'un ishlashiga bevosita bog'liq. Xususan, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, audio va multimediya vositalari, shuningdek, autentik materiallardan bosqichma-bosqich foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Tinglab tushunish nafaqat nutqiy faoliyatning yetakchi turi bo'lib, balki o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishi va o'z fikrini to'g'ri anglashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammo – o'quvchilarning tezkor va tabiiy nutqni idrok etishda qiyinchilikka duch kelishi, darslarda sun'iy va soddalashtirilgan audio materiallardan haddan tashqari foydalanish bilan bog'liq edi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun dars jarayoniga bosqichma-bosqich autentik audio materiallarni kiritish va ularni interfaol mashqlar bilan boyitish samarali yechim sifatida belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish tizimli va maqsadli yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek pedagogik amaliyotida qo'llash uchun muhim metodik ahamiyatga ega bo'lib, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida tinglab tushunishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida til o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya. 2020.B-135
2. Hamroyev, G'. Ona talimida kompetitsiyaviy yondashuv. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.B-185
3. Mahmudov, N. Ona tili ta'limi metodikasi —Toshkent o'qituvchi, 2019.B-256
4. Mo'minov, Sh. Til o'rganishning nazariy va amaliy asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2018.B-215
5. Qodirov, D. O'zbek tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: Sharq. 2018. B-155
6. To'rayev, B. O'quvchilarda nutqiy kompetitsiyalarni rivojlantirish masalalari. — Toshkent: Fan va texnologiya. 2019.B-131
7. Usmonova, N. O'rta ta'limda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish pedagogik usullari. — Toshkent: Fan. 2021.B-120